

Methods and significance of vocabulary work in the context of primary teaching of the native language

Dilrabo MALIKOVA¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

speech,
word,
dictionary,
meaning,
antonyms,
polysemous words,
opposite meaning words,
context,
explanation,
word minimum,
didactic material.

ABSTRACT

In native language lessons in primary school, attention is focused on the first stage of student speech development. This article discusses in detail the meaning, stages, and methods of working on a word. This process is important for the formation of the foundations of language skills, such as mastery of vocabulary and awareness of the morphological and syntactic structures of the language.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp260-266>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CCBY4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z ustida ishlash

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

nutq,
so'z,
lug'at,
ma'nodosh so'zlar,
ko'p ma'noli so'zlar,
zid ma'noli so'zlar,
konteks,
izoh,
so'z minimumi,
didaktik material.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqining dastlabki bosqichi hisoblangan, so'z ustida ishlashning ahamiyati, bosqichlari va turlari to'g'risida fikr yuritilgan. So'z ustida amalga oshiriladigan ishlarning o'quvchi nutqida aks etishi borasida ham to'xtalib o'tilgan.

¹ Master's student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
E-mail: dilrabomalikova21@gmail.com

Методы и значимость словарной работы в контексте начального обучения родному языку

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

речь,
слово,
словарь,
значение,
антонимы,
многозначные слова,
слова противоположного
значения,
контекст,
объяснение,
словесный минимум,
дидактический материал.

На уроках родного языка в начальной школе акцентируется внимание на первом этапе развития речи учащихся. В данной статье подробно рассматриваются значение, этапы и методы работы над словом. Этот процесс важен для формирования основ языковых навыков, таких как владение лексикой, осознание морфологических и синтаксических структур языка.

Soʻz – nutqining asosiy hom-ashyosi. Oʻquvchini bu xom-ashyo bilan taʼminlashning asosiy masʼuliyati ona tili mashgʻulotlari zimmasiga tushadi. Shuning uchun soʻz ustida ishlash, oʻquvchilarni ularga notanish boʻlgan soʻzlar olamiga olib kirish, nutq sharoitiga qarab ulami toʻgʻri va oʻrinli ishlatishni taʼminlash ona tili mashgʻulotlarining muhim tarkibiy qismiga va ona tilidan oʻquvchi bilimini baholashning asosiy omillaridan biriga aylanmogʻi lozim.

Ona tili taʼlimining bosh maqsadi “Oʻquvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va oʻrinli foydalanish koʻnikmalarini, fikrni turli yoʻsin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat ekan, bunga erishishni boy va barkamol soʻz xazinasiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shuning uchun soʻz boyligi omili davlat standartida muhim oʻrin egallashi lozim. Nutq boyligi masalasi ona tilidan taʼlim samaradorligining amaliy koʻrsatkich darajasiga koʻtarilishi va soʻz boyligini oshirish hamda boyitish esa ona tili taʼlimining asosiy maqsadiga aylantirilishi taʼlimning jahon andazalariga mos keladi.” – deya pedagog olimlar oʻquvchilar fikrlarini toʻlaqonli bayon qilishlarida soʻz boyligini oshirish hamda lugʻatlar bilan olib boriladigan ishlar nechogʻlig ahamiyatligi hamda soʻz boyligini oshirish jahon andozasiga mos ekanligidan dalolat beradi.

Boshlangʻich sinflarning ona tili taʼlimida oʻquvchilarning nutqini oʻstirish – ularda eshitish, anglash, gapirish, yozish va oʻqish koʻnikmalarini shakllantirish, demakdir. Shu asosda intellektual salohiyat oshiriladi, estetik va axloqiy tarbiya yoʻlga qoʻyiladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini nutqiga qoʻyilgan talablar va uni oʻstirish bosqichlari mavjud boʻlib ular quydagilardan iborat. Nutqning mazmundorligi, mantiqiyliqi, aniqligi, tushunarliqligi, ifodaliligi hamda toʻgʻriligi nutqga qoʻyilgan talablarni mujassamlashtiradi va ular uzviy bogʻlangan hisoblanib, taʼlim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Ona tili taʼlimi metodikasiga koʻra nutq oʻstirish jarayoni uch bosqichni oʻz ichiga oladi va quyidagicha ketma-ketlikni tashkil qiladi:

1. Soʻz ustida ishlash;
2. Soʻz birikmasi va gap ustida ishlash;
3. Bogʻlanishli nutq ustida ishlash;

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlik asosida o'quvchilar nutqini rivojlantirish tizimlashgan hisoblanadi.

So'z ustidagi ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. So'zning to'g'ri adabiy orfoepik talaffuzi va o'qilishini o'rgatish.
2. So'z ma'nosini tushuntirish.
3. O'quvchilar nutqiga yangi so'zlarni kiritib borish, ya'ni lug'atini boyitish.
4. Lug'atidan o'rin olgan so'zlarni kerakli o'rinda maqsadga muvofiq tanlab olishga o'rgatish.

5. So'zlarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashga o'rgatish.

6. So'z minimumiga kiradigan so'zlarni imloviy jihatdan to'g'ri yozishga o'rgatish.

So'z ustida ishlash nutq rivojlantirishning dastlabki bosqichi bo'libgina qolmasdan, nutq jarayonida muhim hamdir. Ona tili darslarida so'z ustida olib boriladigan ish turlari quyidagicha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Lug'at ustida ishlash;
2. So'z ma'nosi ustida ishlash;
3. Ma'nodosh so'zlar ustida ishlash;
4. Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash;
5. Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlar ustida ishlash;
6. Mantiqiy mashqlar ustida ishlash;

Lug'at ustida bajarilagidan ishlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishi o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. M. R. Lvovning ma'lumot berishicha, IV sinfgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan yangi so'zlarning yarmi o'quvchilar lug'atiga ana shu darslar orqali kiradi.

"Lug'at ishi – o'qituvchi faoliyatidagi bir lavha emas, balki rus tili kursining barcha bo'limi bilan bog'langan tizimli, yaxshi tashkillashtirilgan, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tuzilgan ishdir" – deb yozgan edi taniqli metodis olim A. V. Tekuchev.

Lug'at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) so'z ma'nosini tushuntirish,
- 2) so'zni faollashtirish,
- 3) so'zni nutqda qo'llash.

O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchi lug'atidagi nafaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish uchun o'quvchiga nafaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'zi qayta hikoyalashi, hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollashgan hisoblanadi. So'zni o'zlashtirish uning ma'nosi, birikuvchaligi va qo'llanish doirasini bilishdan iborat.

Lug'atlar bilan ishlash jarayonida o'quvchi lug'atiga aniqlik kiritib, nutqida foydalanib kelayotgan so'zlari aynan qanday ma'no kasb etishini aniqlab, ma'no qirralarini ochib berish muhimdir. Bunday so'zlar adabiy yoki adabiy til me'yorlariga mos kelmaydigan so'zlar ham bo'lishi mumkin, bunday hollarda adabiy so'zlarni o'quvchilarni kundalik nutqiga qo'shish orqali faollashtirish, ziddini esa nafaollashtirish lozim.


O'quvchilar lug'ati asosan atrof-muhitga qarab shakllanadi va boyib boradi.

Lugʻat oʻstirishning eng samarali usullaridan biri bu badiiy asarlar hamda adabiyotlar oʻqish hisoblanadi ammo bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda zamonaviy gadjet va aloqa vositalari ham maʼlum maʼnoda oʻquvchilarning nutqiy boyligiga taʼsir koʻrsatib kelmoqda.

Soʻz maʼnosi ustida ishlash Oʻquvchiga yangi soʻz maʼnosini tushuntirish, uning soʻzni toʻgʻri tushunishiga erishish zarur. Buning uchun esa oʻqituvchi soʻz maʼnosini tushuntirish usullarini bilishi va ulardan oʻrinli foydalanishi lozim. M. R. Lvov soʻz maʼnosini tushuntirishning quyidagi usullarini ajratadi: koʻrgazmali, kontekstual, sinonim keltirish, mantiqiy taʼrif berish, batafsil tavsiflash, antonim keltirish, soʻzning yasaliish tarkibini tahlil qilish.

Soʻz maʼnosini tushuntirish – hali oʻquvchilar lugʻatini boyitishning birinchi bosqichi xolos. Soʻz oʻquvchining “oʻz mulki”ga aylanishi, yaʼni faol lugʻatiga kirishi uchun katta ishni amalga oshirish talab qilinadi. Nutq oʻstirish boʻyicha tajriba shuni koʻrsatadiki, bu borada shablon va rejasizlikka yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Har bir dars uchun rejalashtiriladigan soʻz ustidagi izchil, puxta, doimiy ish olib borilishi lozim.

Til taʼlimi metodikasiga asosan soʻz maʼnosini tushuntirishning quydagi kategoriyalari mavjud.



1-chizma.

Soʻz maʼnolarini tushuntirish oʻquvchilar lugʻatiga yangi soʻzlar kirishiga yordam beradi va nutqini rivojlantiradi. Dars jarayonida ushbu ishlar uchun kamroq vaqt sarflanishi yaʼni oʻquvchilarni asosiy mavzudan eʼtiborini chalgʻitmasligi lozim, buning uchun oʻqituvchi dars jarayonidan avval tushuntirishning eng qulay usulini belgilab olishi darkor.

Maʼnodosh soʻzlar ustida ishlash. Sinonim soʻzlar bilan ishlash elementlar ravishda 1-sinfdan boshlanadi, lekin maxsus soat ajratilmaydi.

Boshlangʻich sinfda sinonim soʻzlar ustida quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi.

- 1) berilgan sinonimlarni guruhlash;
- 2) berilgan soʻzga sinonim tanlash;
- 3) tushurib qoldirilgan sinonim soʻzlarni oʻrniga qoʻyib matnni koʻchirish;

- 4) sinonimlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish;
- 5) sinonim so'zlar vositasida didaktik material tanlash.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ma'nodosh so'zlar ustida ishlash uchun ko'p vaqt ajratilmaydi, agarda mashqlar davomida shunday so'zlarga duch kelinsa, bu holda o'qituvchi tomonidan mashq bajarilishidan oldidan so'z ma'nosi ochib berilib, o'quvchilarga tushuntiriladi. Ma'nodosh so'zlarga doir mashqlar boshlang'ich sinflarda, biron so'z berilib, uning qanday ma'nodoshlari bor, ma'nodosh so'zlar jadvali kabi mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar zid ma'noli so'zlar (antonimlar) hisoblanib, nutqimizda davomida faol qo'llaniladi. Shuningdek, so'z ma'nosi tushuntirishning hamda qiyoslashning boshlang'ich sinflarda eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari zid ma'noli so'zlar bilan ona tili darslarida amliy tanishib boradilar va ular ustida turli shakldagi mashqlarni bajarib boradilar. Bu o'quv jarayonida so'zlarning antonimini topish, ular ishtirokida gaplar tuzish, mos zid ma'noli so'zlarni gaplarga qo'yish kabi mashqlar orqali ona tili darslarida o'zlashtirib boriladi.

Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlar ustida ishlash. Kundalik va o'quv nutq jarayonida o'quvchilar ko'p marotaba ushbu turdagi so'zlarga murojaat qilishib, faol tarzda qo'llab boradi, ammo ushbu so'zlarning ko'p ma'noli yoki shakldosh so'zlar ekanligiga ahamiyat berishmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'p ma'noli so'zlar bilan tanishtirish 2-sinfdan mavzu sifatida o'rgatiladi. Bu jarayonda o'qituvchi tomonidan shakldosh va ko'p ma'noli so'zlarning farqli jihatlar ya'ni ko'p ma'noli so'zlar mazmunan bog'liqligi, shakldosh so'zlar esa, yozilishi jihatidan bir shaklga ega bo'lsada, nutqda boshqa bir ma'nolarni ham ifodalashi va ma'no jihatdan bir biriga bog'lanmaganligi bilan farqlanadi. Ushbu turdagi so'zlarga mashq jarayonlarida duch kelinsa, o'qituvchi bunday so'zlarni ushbu mashq so'ngida ma'no qirralarini ochib berishi lozim. Boshlang'ich sinflarda asosan, she'rlarda ko'p ma'noli va shakldosh so'zlarga duch kelinadi. Ko'p ma'noli so'zlar ustidagi mashqlar quyidagicha :so'zlarning ikkinchi ma'nosini ifodalovchi so'zlardan gaplar tuzish, ko'p ma'noli so'zlar tagiga chizish, ma'nosini yozish kabi mashq turlaridan iborat. Shakldosh so'zlar ustida mashqlar bajarish jarayonida quyidagicha mashq turi, nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chirtirib yozish kabi mashqlar samarali hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar ustida ishlash. Mantiqiy mashqlar ustida ishlash orqali o'quvchilarda kreativ tafakkur hamda nutq boyligi ham shakllanib boradi va rivojlanadi. Ushbu mashq turlari yordamida so'zlarni tartibga solishni hamda asosiy so'z kabi tushunchlarni o'rganadi. Bir turkumga kiruvchi masalan, mevalar, o'quv qurollar nomlarini yozish yokida rebuslar bilan ishlash, berilgan sonlarni alifbe tartib raqami bo'yicha joylashtirish orqali so'zlar hosil qilish kabi mashqlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ish turlari orqali o'quvchilar nutqini o'stirish bilan birgalikda tafakkuri ham orta boradi va bu jaryon tizimlashgan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonni samarali tashkil etish albatta, pedgog faoliyati bilan ham bevosita bohg'liq hisoblanadi.

O'quvchining so'z boyligi, nutqiy rivojlanishi atrofdagilar bilan muloqotga kirishishida katta imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchiga faqat bilim berishgina emas balki, bunga o'quvchilarning kommunikativ va mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish ham kiradi. O'qituvchi o'quvchilarni turli vaziyatlarda til

birliklaridan foydalana olishga, o'z nutqiga ongli munosabatda bo'lishga, har bir so'ziga javobgarlikni his qilishga o'rgatishi kerak. Ona tili o'quv predmeti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki inson uchun umri davomida zarur bo'ladigan til birliklarini amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga ham yo'naltirilgandir.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish uchun ta'limning barcha bosqichlarida uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga asoslaniladi. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarining maktabga tayyorlov guruhida so'zlarning ma'nosini tushuntirish, so'zlarga sinonim va antonimlar topish, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosi ustida lug'at ishlari olib borilsa, so'z birikmasi tarkibida so'zlarni boshqasi bilan almashtirish kabi mashqlar tashkil etilsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni so'z ustida ishlashga o'rgatish orqali lug'atini boyitish va so'zdan to'g'ri foydalana olish kabi ish turlari olib boriladi. Va bu bilimlarni muvaffaqiyatli egallash bilan yuqori natijalariga erishiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi boshlang'ich ta'lim bosqichi ona tili ta'limimning bosh vazifasi turli usulda va mazmunda tashkil etiladigan mashqlar yordamida o'quvchilarning nutqi va taffakurini rivojlantirishga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslari o'quvchilarning o'z fikrni og'zaki va yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda so'z ustida olib boriladigan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola maktabga kelgunga qadar oila muhitida, maktabgacha ta'lim muassasalarida qiziqishlari va ehtiyojlarini ifodalash yuzasidan zarur bo'lgan so'zlarni gaplar tarkibida qo'llash ko'nikmasini o'zlashtirgan bo'ladi. Lekin ularga maktabda o'rganiladigan yangi tushunchalar va hissiyotlarni ifodalash uchun uning nutqida so'z zahirasi yetishmaydi. Maktab oldida turgan eng asosiy vazifa o'quvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish asosida o'quvchilarning lug'atini boyitish orqali nutqini, mantiqiy fikrlash orqali tafakkurini rivojlantirishdir.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar "Alifbe" va "Yozuv" darslarida harflardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan esa gaplar hamda gaplardan esa nutq hosil bo'lishini o'rganib boradilar.

Savod o'rgatish darslari va boshqa predmet darslarida o'quvchilar o'zlari uchun notanish bo'lgan so'zlarni o'z lug'at zahiralariga qo'shib boradilar. Ona tili ta'limining keyingi bosqichlarida esa so'zlar ustida ishlash orqali ushbu so'zlar o'quvchilar nutqida faol holatga o'tadi. Avval, o'quvchi ushbu so'zni mohiyatdan anglamasdan mazmunan nutqida qo'llagan bo'lsa, so'z ustida boradigan mashqlar davomida ongli ravishda qo'llay boshlaydi.

Mazmun mohiyatga ko'ra ta'lim jarayoning barcha fanlarida berilgan matnlar va ularda ishtirok etgan so'zlar, so'zlarni ifodalovchi tasvirlar o'quvchilarning bilm va tafakkurini qolaversa, nutqini boyitish manbai sanaladi.

Atoqli sovet o'qituvchisi V.S. Suxomilenskiy fikricha so'z-bolaga ta'sir ko'rsatishning eng muhim vositasi hisoblanadi va bu orqali o'quvchilarning his-tuyg'ulari, qalbi va fikrini oliyanoblashadi deya quyidagicha ta'rif keltiradi "Agar so'z bo'lmaganida aqliy tarbiya bo'lmaganida ta'limdagi eng muhim maqsadga -bolaga o'ylashni, predmetlar, narsalar, hodisalarning o'zaro ta'sirini payqab olishni, umumlashtirishni, tabiatdan ko'rinarli obraz va tasavvurlardan mavhumlashishni o'rgatishga intilish bo'lmaganida, bolalar tabiat go'zalligiga, bo'yoq va so'zlar tovlanishiga, bitmas-tuganmas turmush xilma-xilliklariga befarq bo'lib qolardilar".

Pedagog olim mutaxassislarning ushbu keltirgan ta'rif hamda metodikalari orqali biz so'z ustida olib boriladigan ishlar avvaldan to hozirgacha muhim ekanligini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslari so'z ustida olib boriladigan ishlar o'quvchilar nutqini rivojlantirishning asosi va zaruriy vositasi. So'z ustida o'tkaziladigan ishlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, bu o'z navbatida aniq-ravshan va rivojlangan nutqni ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova, A. Bobomurodova, N. Alavutdinova, V. Karimjonova "Ona tili o'qitish metodikasi" «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.
2. A. Hamroyev. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro.
3. D. Malikova "Boshlang'ich sinflarda so'z ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirish". "Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish masalalari:muammo , tadqiqot" mavzusida xalqaro ilmiy -amaliy anjumanlar to'plami. 2023-yil 23-noyabr. Navoiy (273-275b.)
4. H. Ne'matov, Gulomov A. , Ziyodova T. Hozirgi O'zbek adabiy tilini o'rganishda o'quvchilar so'z boyligini oshirish. T. : "Xalq merosi", 2000 y.
5. N. B. Adizova, N. B. Adizova Ona tili o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2021
6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T. : Noshir, 2009.
7. S. Matchonov, H. Bakiyeva, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, G. Xolboyeva "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darslik. "Ishonchli hamkor nashriyoti" Toshkent-2021.
8. V. S. Suxomilenskiy "Bolalarga jonim fido". T. "O'qituvchi", 1984.
9. www.ziynet.uz
10. www.referat.uz
11. www.hozir.org
12. . www.wikipedia.uz